

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2025
TABIIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

O.A.Abduhamidova, O.M.Nazarov, X.N.Saminov	
Yerqalampir o'simligi bargalri efir moyining kimyoviy tarkibini o'rganish	5
P.K.Turdalieva, S.M.Qosimova	
Farg'ona xududida o'sadigan <i>Taraxacum officinale</i> Wigg. s.L. o'simligi tarkibida fenol birikmalari va bioelementlar miqdorini o'rganish.....	9
V.M.Nosirova V.U.Xo'jayev	
Asperugo procumbens o'simligi yer ustki qismining kul miqdori hamda makro va mikroelementlari tahlili	15
D.Sh.Shavkatova	
Yangilangan oltingugurtli betonning korroziyaga qarshi kuchi	19
D.G'.Urmonov, A.K.Salman, I.J.Jalolov A.A.Ibragimov	
<i>Limonium otolepis</i> yer ustki qismi geksan fraksiyasi gaz xromatografik-mass spektrometrik tahlili	29
M.Y.Ismoilov, M.Sh.Ermatova	
FNQIZ ishqoriy chiqindilar tarkibini tahlil qilish	33
G.K.Najmitdinova, D.A.Shodiyev, X.Sh.Xoshimjonov, N.X.To'xtaboyev	
Mahalliy amarant navlaridagi biologik faol bo'yovchi moddalar miqdorini aniqlash hamda ulardan samarali foydalanish istiqbollari.....	44
M.R.Murtozaqulov, Y.S.Fayzullayev, S.X.Botirov, D.J.Bekchanov, M.G.Muhamediyev	
Tabiiy gazlarning nordon gazlardan tozalashda ishlatalgan metildietanolamin tarkibidagi termik barqaror tuzlarni ajratib olish	49
M.I.Karabayeva, D.S.Salixanova, S.R.Mirsalimova	
Temir asosida metall-organik adsorbentlar olishning samarali usullari	55
N.N.Dexkanova, G.V.Tollibaeva	
Uglerod oksisulfid molekulalarining nax seolitiga adsorbsiyasini mikrokalorimetrik.....	60
D.A.Shodiyev, G.K.Najmitdinova, X.Sh.Xoshimjonov, N.X.To'xtaboyev	
Yangi amarant navlaridagi biologik faol moddalar va kimyoviy elementlarni o'rganish va maxsus oziq-ovqat qo'shimchasini yaratish istiqbollari	66
I.R.Askarov, O.Sh.Abdulloev M.M.Kholmatova	
Chemical composition and medicinal properties of fish and fish bones	72
A.P.Xujakulov, I.R.Asqarov, A.X.Islomov	
Yashil no'xat urug'i tarkibidagi vitaminlar miqdorini aniqlash.....	76
H.R.Rahimova, A.A.Ibragimov	
Phlomoides nuda o'simligining mikroelementlar tarkibi va vitaminlari	80
Z.Q.Axmedova, I.R.Asqarov, Sh.M.Kirgizov	
Study of antioxidant activity of a mixture prepared from <i>Tribulus macropterus</i> , <i>Taraxacum officinale</i> and <i>inula helenium</i>	85

BIOLOGIYA

B.M.Sheraliyev, S.Y.G'ułomov, I.I.Zokirov	
Kumushrang tobonbaliq <i>Carassius gibelio</i> (Bloch, 1782) dagi bosh deformatsiyasining birinchi qaydi.....	89
M.A.Axmadjonova, G.M.Zokirova	
Fabaceae oilasi vakillarida tarqalgan <i>Sitona cylindricollis</i> (Fahraeus, 1840) ning morphologiyasi va bioekologiyasi.....	96
M.M.Teshajonova, G.M.Zokirova	
Tibbiyat oliygohi talabalariga gistologiya fanini o'qitishning innovatsion usullari	101
I.A.Abdurazakova, A.E.Zaynabiddinov	
Kaliforniya qizil yomg'ir chuvalchangini O'zbekiston sharoitida har xil ozuqada parvarish qilish	112
K.P.Buriyeva, G.S.Mirzaeva, N.Z.Arabova	
Taxonomy and Morphology of species of the genus <i>Hippodamia</i> (Chevrolat in Dejean, 1837), common in the Kashkadarya region	120



УО'К: 541.62.439

**МАХАЛИЙ АМАРАНТ НАВЛАРИДАГИ БИОЛОГИК ФАОЛ ВО'YOVЧИ МОДДАЛАР
МИҚДОРНИНИ АНИQLASH ХАМДА УЛАРДАН САМАРАЛИ ФОYDALANISH ISTIQBOLLARI**

**ОПРЕДЕЛЕНИЕ КОЛИЧЕСТВА БИОЛОГИЧЕСКИ АКТИВНЫХ КРАСИТЕЛЕЙ В
МЕСТНЫХ СОРТАХ АМАРАНТА И ПЕРСПЕКТИВЫ ИХ ЭФФЕКТИВНОГО
ИСПОЛЬЗОВАНИЯ**

**DETERMINATION OF THE CONTENT OF BIOLOGICALLY ACTIVE DYES IN LOCAL
AMARANTH VARIETIES AND PROSPECTS FOR THEIR EFFECTIVE USE**

Najmitdinova Guljahon Komiljon qizi¹ 

¹Farg'ona Politexnika instituti, assistent

Shodihev Dilshodjon Abdulojon o'g'li² 

²Farg'ona Politexnika instituti, assistent

Xoshimjonov Shukurullo Nozimjon o'g'li³ 

³Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti

To'xtaboyev Nozimjon Xoshimjonovich⁴ 

⁴Andijon davlat universiteti professori, kimyo fanlari doktori

Annotatsiya

Mazkur maqolada bugungi kunda XXI asr o'simligi deb e'tirof qilinayotgan amaranat o'simligidan samarali foydalanish, amaranat kimyoviy tarkibining o'ziga xosligi, biologik faol birikmalarga boyligi, inson salomatligini saqlashda undan unumli foydalanish, mahalliy yangi navlaridan kompleks foydalanish, funksional ovqatlanishni tashkil qilish uchun biologik faol oziq-ovqat qo'shilimalari yaratish hamda ularni amaliyotga joriy qilish muammolini yoritilgan. Kuchli jismoniy mehnat bilan shug'ullanuvchi toifadagi insonlar uchun tabiiy energetik ichimlik yaratish uchun mahalliy yangi "O'zbekiston-M", "Andijon", "Marhamat", "Ulug'nor" amaranat navlaridan maqbullarini aniqlash uchun o'simlik yer ustki qismllari, barglari va gulbargalaridan ekstraktlar olib, ulardagi pigmentlar: amaranthin, xlorofill, karotinoidlar miqdori solishtirma tarzda o'rganilgan. Olingan natijalar asosida bu maqsadlar uchun "Andijon", "Marhamat" navlaridan foydalanish yuzasidan xulosa olingan.

Аннотация

В данной статье рассматриваются перспективы эффективного использования растения амарант, которое сегодня признано растением XXI века, его выращивание, уникальность химического состава, богатый состав биологически активных соединений, его эффективное использование в поддержании здоровья человека, комплексное использование новых местных сортов, а также проблемы создания биологически активных пищевых добавок для организации функционального питания и их внедрения в практику.

С целью создания натурального энергетического напитка для людей, занимающихся активной физической работой, были использованы надземные части растений для определения лучших местных сортов амаранта "O'zbekiston-M", "Andijon", "Marhamat", "Ulug'nor", взяты экстракты из листьев и лепестков, сравнительно изучено содержание в них пигментов: амарантин, хлорофилл, каротиноидов. На основании полученных результатов сделан вывод о целесообразности использования для этих целей сортов "Andijon" и "Marhamat".

Abstract

This article discusses the prospects for the effective use of the amaranth plant, which is now recognized as a plant of the 21st century, its cultivation, the uniqueness of its chemical composition, the rich content of biologically active compounds, its effective use in maintaining human health, the comprehensive use of new local varieties, as well as the challenges of developing biologically active food supplements for functional nutrition and their practical implementation.

In order to create a natural energy drink for people engaged in active physical work, the above-ground parts of plants were used to determine the best local varieties of amaranth—"O'zbekiston-M", "Andijon", "Marhamat", and "Ulug'nor". Extracts from leaves and petals were obtained, and the content of pigments such as amaranthine,

KIMYO

chlorophylls, and carotenoids was comparatively studied. Based on the results obtained, it was concluded that the "Andijon" and "Marhamat" varieties are the most suitable for this purpose.

Kalit so'zlar: amarant, bo'yovchi modda, pigment, ekstrakt, amaranthin, xlorofill, karotinoid, biologik faol modda, oziq-ovqat qo'shilmasi

Ключевые слова: амарант, краситель, пигмент, экстракт, амарантин, хлорофилл, каротиноид, биологически активное вещество, пищевая добавка

Key words: amaranth, dye, pigment, extract, amaranthine, chlorophyll, carotenoid, biologically active substance, food additive

KIRISH

Amarant o'simligiga xalqaro qiziqish nisbatan yaqinda paydo bo'lib, AQSH, Meksika va Lotin Amerikasi mamlakatlarda uni har tomonlama o'rganish uchun ilmiy-tadqiqot markazlari tashkil qilindi va mahalliy hamda boshqa mintaqalardan introduksiya qilingan turlarining germoplazasini yig'ish va seleksion-genetik izlanishlar yo'lga qo'yildi. AQSH, Ekvador, Argentina, Meksikada yangi navlar yaratildi. A.caudatus L., A. cruentus L., A. hipochondriacus L., A.mantegazzianus L. (donli turlar) va A. dubius Mart (sabzavot turi) turlari amerikalik kelib chiqishga ega.

Hozirgi vaqtga kelib bu o'simlik Hindistton, Xitoy, Janubiy-Sharqiy Osiyo, Afrika, Yevropa mamlakatlarda keng maydonlarda yetishtirilmoqda. Bu mamlakatlarda o'simliklarning ekologik moslashuvchanligi, yangi navlar yaratish, yuqori hosil olish texnologiyalarini ishlab chiqish bo'yicha fundamental tadqiqotlar, inson uchun ozuqaviy va chorva uchun yem maqsadlarida don yetishtirish bo'yicha amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda.

ADABIYOTLAR TAXLILI VA METODOLOGIYA

Urug'lari va barglarining yuqori to'yimli qimmatga ega ekanligi, qurg'oqchilikka chidamliligi, sho'rslashgan, ishqoriy va kislotali tuproqlarga bardoshliligi, yuqori hosildorligi (200-270 t/Ga ko'k massa, 50-70 s/Ga urug') va urug'ning ekin me'yorining nihoyatda ozligi (1-2 kg/Ga) ko'plab mamlakatlarda amaran yetishtirish jozibadorligi ta'minlamoqda [1].

O'zbekistonda ham amaran o'simligi introduksiya qilinib, "O'zbekiston-M", "Andijon", "Marhamat", "Ulug'nor" navlari yaratilib, patentlangandan buyon mazkur o'simlikning yangi navlari mahalliy sharoitlarda nafaqat fenotipik va genotipik belgilari balki kimyoviy va biokimyoviy tarkibi bo'yicha ham o'zgarishlarga uchraganligi chuqur tadqiq qilinmoqda [2-5].

Amarantning xalq tabobatida turli kasalliklarni davolashda keng qo'llanilishi o'simlik organlarida ta'siri va kimyoviy tarkibi turlicha bo'lgan biologik faol moddalar mavjudgini ko'rsatadi. Zamonaviy olimlarning mazkur o'simlikka qiziqishlarini ortayotganligi amarantdan o'simlik va hayvonlarning turli model tizimlari yoki tirik organizmdagi jarayonlarni faollashtiruvchi yoki ingibirlovchi xususiyatga ega bir qator fiziologik faol moddalar ajratib olingani bilan bog'liq. Amarant barglarida betalainlar, karotinoidlar, askorbin kislotosi, P-vitamin faolligi mavjud bo'lgan moddalar, almashinmaydigan aminokislotalar, pektin va oqsillar bilan bog'langan amaran tin mavjud [6].

Tibbiy izlanishlarda barglardan olingan amaran tin va urug'idagi pektin va oqsil bilan bog'langan amaran tin kompleksidan keng foydalaniylmoqda. Amarantin viruslarga qarshi xususiyatga ega [7]. Amarantin betanidinning 5-O-glyukuronidoglyukozi bo'lib, aglikon-betanidin C-5 holatiga glyukoza va glyukuron kislotosi birikkan. Betanidin molekulasi bitta asimetrik atom tutadi (C-12 holatida uglerod xiral markazi). O'simlikda betatsianinlar bo'lgan amaran tin va uning epimeri izoamarantin miqdorlari o'rganilganda A.cruentusda 82 % amaran tin va 18% izoamarantin, A.caudatusda 90% amaran tin va 10% izoamarantin, A.gangeticusda faqat amaran tin uchraydi [8].

O'simlikning yer ustki qismidan 70% li etanol yordamida ajratib olingan fraksiya intakt yurakning qisqarish funksiyasini orttiradi va ishemiyaga uchragan izolyatsiyalangan yurak tiklanish xususiyatini 30-40% ga yaxshilaydi [9].

Ayni o'zgarishlar o'simliklar tarkibidagi biologik faol moddalar va antioksidant komponentlar miqdorini ortishiga olib kelgan va chorvachilik uchun ozuqa-yem tayyorlashda, funksional ovqatlanishda yangi biologik faol ozuqaviy qo'shilmalar yaratish va ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy qilish uchun muhim bazis bo'lib kelmoqda. Bugungi kunga kelib, amaran tning yangi navlari asosida kukun, kapsula, moy kompozitsiyalari, turli choylar ko'rinishidagi oziq-ovqat qo'shilmalari yaratildi va ishlab chiqarish texnologiyalari joriy qilindi [10,11].

Biz tomonimizdan ham kuchli jismoniy mehnat qiluvchi insonlar uchun amarant barglari va gulbarglari asosida tabiiy energetik ichimliklar hamda urug'lari asosida kombinatsiyalashgan bo'tqa ko'rinishida biologik faol oziq-ovqat qo'shilmalari yaratish hamda ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy qilish maqsad qilib olingan.

Mazkur yo'naliishlarda amarant o'simligi mahalliy navlaridagi bo'yovchi moddalar tarkibi va miqdorlarini o'rganish tadqiqotimizning asosiy yo'naliishlaridan biri hisoblanadi.

Farg'ona politexnika instituti tajriba maydonida yetishtirilgan "O'zbekiston-M", "Andijon", "Marhamat", "Ulug'nor" navlari barglari, gulbarglari va urug'lari tadqiqot ob'yekti sifatida olindi.

Tajriba qismi. Xlorofillar, karotinoidlar va amarantin miqdorini aniqlash. Amarantning yangi barglari gomogenizatorda maydalaniadi yoki quritilgan barglari tegirimonda maydalaniadi. Qopqog'i mahkam byuksga solingan yangi barglar (1:[1-2] nisbatda) yoki quruq kukun (1:[7-10] nisbatda) ustiga 10 ml 96% li etil spirti quyiladi hamda yashil pigmentlar to'liq ekstraksiyalanguncha qoldiriladi. So'ngra bo'yalgan eritma idishga quyib olindi va yutilish koeffitsiyentini (ϵ) 665 nm, 649 nm, 470 nm to'lqin uzunliklarida aniqlandi.

Pigment miqdori quyidagi formula asosida aniqlandi:

Xlorofill a

$$X = 13,95 \times Y_{665} - 6,88 \times Y_{649} \quad (1)$$

Xlorofill b

$$X = 24,96 \times Y_{649} - 7,32 \times Y_{665} \quad (2)$$

Karotinoidlar

$$X = \frac{221000 \times Y_{470} \times (Y_{470} - 2,05 \times Y_{665} - 114,8 \times Y_{649})}{245} \quad (3)$$

Xlorofill va karotinoidlarni spirtli ekstraksiyasidan keyin byuksda qolgan qizil kukun yoki rangsizlangan barglar ustiga 10 ml distillangan suv quyib, 10 soat davomida amarantinni ekstraksiya qilindi va spektrofotometrda optik yutilishni 537 nm to'lqin uzunligida o'lchandi. Amarantin miqdori (M_a) mazkur pigmentning molyar ekstinksiyasi koeffitsiyentini ($\epsilon = 5,66 \times 10^4$) [12] hisobga olgan holda, Y_{537} eritmasining 1 sm qalinlikdagi kyuvetadagi optik zichligi kattaligini o'lchagan holda aniqlandi. Amarantin miqdorini mollarda quyidagi formula bilan aniqlandi:

$$X = \frac{Y_{537}}{\epsilon}$$

Amarantin miqdorini quyidagi formula bilan aniqlandi:

$$X = \frac{Y \times \nu \times M}{\epsilon \times m} \quad (4)$$

X – aniqlanayotgan pigment massasi, mg/g

Y – ko'rsatilgan to'lqin uzunligidagi optik yutilish

M – 727 D amarantinning molekulyar massasi, $C_{30}H_{35}N_2O_{19}$

$\epsilon_{537} = 5,66 \times 10^4 \text{ M}^{-1} \text{sm}^{-1}$

m – massa, g

Amarantin miqdori deganda amarantinning umumiy miqdori tushiniladi.

Betatsianinlarni preparativ ajratib olish. Betatsianinlarni fizik-kimyoviy xossalari, biologik faolligi va ta'sir mexanizmlarini o'rganishda yetarli darajada toza preparatlardan foydalaniladi. Suvda eruvchi betatsianinlarni barglar, gulbarglardan ajratib olishda yangi to'plangan material yoki $40^\circ C$ da quritib olingen materialdan foydalaniladi. O'simlik materiali betatsianinlardan ajratib

KIMYO

tashlanishi lozim bo'lgan ko'plab qo'shimchalar tutadi. Qo'shimchalardan tozalashda an'anaviy biokimyoiy usullar: sentrifugalash, ionalmashinuvchi xromatografiya, gelfiltratsiya, dializ va boshqalardan foydalaniladi.

Quruq kukun yoki yangi to'plab gomogenlashtirilgan material suv yoki suv-spirt eritmasida 70°C haroratda ekstraksiya qilib, pigmentni eruvchan holga o'tkaziladi. Oqsillar va yuqori molekulyar birikmalarni neytral tuzlar, odatda $(\text{NH}_2)\text{SO}_4$ bilan cho'ktiriladi. pH, ion kuchi va harorathning optimal qiymatlarini aniqlab olish muhim hisoblanadi. Pigment eritmasining oqsildan to'laroq ajratib olish uchun pH qiymati oqsilning izolektrik nuqtasiiga mos kelishi kerak. Amarantin bilan bog'langan oqsilning rangsizlanishini oldini olish uchun quyi haroratda cho'ktiriladi ($\sim 4^\circ\text{C}$).

Quyi- va yuqorimolekulyar fraksiyalarni ajratishda dializ usuli qo'llanadi. Pigmentlarni tozalashda yuqori samarador suyuqlik xromatografiysi usuli, moddalarning kislota-asos xossalari turlichaligiga asoslangan ion-almashinuvchi xromatografiya, molekulyar massalar orasidagi farqqa asoslangan sefadekslarda filtrlash usullaridan foydalaniladi. Pigmentlar molekulasidagi zaryad belgisi va qiymatidagi farq pigmentlarni kraxmal, agar, poliakrilamiddekstran kabi muhitlarda ajratib olish imkonini beradi.

Odatda pigmentlar va bo'yalgan oqsillar preparatlari tozaligini baholashda spektroskopik me'zonlar – ko'rinarli (xromofor) va ultrabinafsha sohalardagi optik zichlik nisbatidan foydalaniladi.

Amarantining 537 nm da yutilish ko'rsatkichiga harorat va pH qiymatining ta'siri. Amarantin eritmasining optik zichligining pH ga bog'liqligini o'rganish uchun pH qiymati 2,0 dan 10,0 gacha bo'lgan diapozonda 100 mM bufer aralashmalar qo'llanildi. Amarantin eritmalarining yutish kattaligi o'zgarishini 24°C dan 100°C gacha bo'lgan intervalda o'rganildi.

Ishda SF-16 (Rossiya) spektrofotometridan foydalanildi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Amarant navlari barglari va gulbarglaridagi bo'yovchi moddalar tarkibi va miqdori.

Amarant navlаридаги турли биологик фоаликка, шунингдек антиоксидант xусусиятга ега bo'yovchi moddalarдан quruq massaga nisbatan xlorofill a 9 mg/g gacha va xlorofill b 3 mg/g gacha, karotinoidlar 4 mg/g gacha amarantin 48 mg/g bo'lib, bu ularning ozuqaviy qimmatini oshiradi.

1-jadval

Amarant navlari barglari va gulbarglaridagi bo'yovchi moddalar tarkibi va miqdori

Nav	amarantin	xlorofill a	xlorofill b	karotinoidlar
"O'zbekiston-M"	35	9	3	4
"Andijon"	48	6	2	3
"Marhamat"	47	6	2	3
"Ulug'nor"	32	8	3	4

Navlardagi amarantin va xlorofillar, karotinoidlarning miqdorlari ularning ranglari bilan uzviy bog'liqlikda bo'lib, "O'zbekiston-M" navi yashil rangi va "Ulug'nor" navi yashil-zarg'aldoq rangi, "Andijon" navi qizil rangi, "Marhamat" navining qo'ng'ir rangi ulardagi pigmentlar miqdorining turlichaligini izohlaydi.

XULOSA

Amarantining yuqori miqdori organizmda ikkilamchi gormonlar sintez qilinishini initsirlaydi, karotinoidlar esa turli biologik faoliyoti namoyon qilishi bilan birgalikda yuqori antioksidant xususiyatlariha ham ega, amarant o'simligi yer ustki qismidan tayyorlangan ekstraktlar yurak zo'riqishini oldini olishi va mushaklarning jismoniy yuklamadan keyin tez tiklashini stimullashtirishi amarantning qizil va qo'ng'ir rangi mahalliy "Andijon", "Marhamat" navlari asosida tabiiy energetik ichimliklar tayyorlash va ulardan kuchli jismoniy zo'riqishdan so'ng organizmni tiklovchi, tonusni oshiruvchi, tetiklashtiruvchi funksional ovqatlanish vositasi sifatida foydalanish istiqbollarini belgilab beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. To'xtaboyev N.X. Amarant-21. Yuziylin kultur bitkisi // Nefes. Aylik kultur va sanat dergisi. Ocak / 2021 – Sayl : 91 – Fiyati 15.00 TL. 39-41 b

2. Мўминов М. Амарант ўсимлиги асосида товарлар олиш ва уларни кимёвий таркиби бўйича синфлаш. Диссертация ҳимоясизишихтиро патенти асосида фан доктори (DSc) илмий даражасини бериш бўйича тақдимнома. 02.00.09-Товарлар кимёси. Андижон, 2022 й. 50-б
3. Патент № NAP 00232 Амарантнинг "Ўзбекистон -M" нави. Мўминов М. Юлдашев Ш.Ў, Тўхтахунов Қ.А, Хуррамав У.Х.. Талабнома рақами NAP 2016 0012. 17.10.2016
4. Патент № NAP 00233 Амарантнинг "Марҳамат" нави. Мўминов М. Юлдашев Ш.Ў, Тўхтахунов Қ.А, Хуррамав У.Х.. Талабнома рақами NAP 2016 0013. 17.10.2016
5. Патент № NAP 00234 Амарантнинг "Улугнор" нави. Мўминов М. Юлдашев Ш.Ў, Тўхтахунов Қ.А, Хуррамав У.Х.. Талабнома рақами NAP 2016 0014. 17.10.2016.
6. Кононков П. Ф., Гинс В. К., Гинс М. С. Амарант - перспективная культура XXI века. М.: РУДН. Издание второе, дополненное. 1999. 312 с.
7. Гинс М.С, Кононков П.Ф., Лысенко Г.Т., Дэсаленъ Т.Л., Гинс В.К. Физико-химические свойства и биологическая активность амарантина из растений *Amaranthus cruentus* L. // Прикладная биохимия и микробиология. 1998. Т.34.№ 4. С. 460-464.
8. Захарова Н.С, Петрова Т. А., Щербухин В. Д., Гинс В. К. Изучение бетацианинов и бетапаниноксидазы в различных видах амаранта // Прикладная биохимия и микробиология. 1995. Т. 31. Вып. 2. С. 234-237.
9. Дэсаленъ Т. Л., Гинс В. К., Конрников П. Ф. Изучение влияния амарантина на работу изолированного сердца крыс // Пища, экология и человек . Р. Ф. М. 1995. С. 17.
10. Yo'ichiyeva N.T. Amarant o'simligi asosida oziq-ovqat qo'shilmlari olish va ularni sinflash. Kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya. Andijon, 2023. 117 b
11. To'xtaboyev N.X. Amarantring yangi mahalliy navlari asosida biologik faol oziq-ovqat qo'shilmlari olish va ularni sinflash. Kimyo fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya. Andijon, 2023. 152 b
12. Piattelli M., Giudici de Nicbla M., Castrogiovanni V. Photocontrol of Amaranthin Synthesis in *Amaranthus tricolor* // Phytochemistry. 1969. V. 8. N 6. P. 731-736